



INTERNET TARMOG‘IGA MO‘LJALLABGAN ELEKTRON AXBOROT-TA’LIM RESURLARINI YARATISHDA MUSTAQIL HAMDO‘STLIK MAMLAKATLARI TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Ravshanova G.A.

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so‘zlar: elektron axborot-ta’lim resurs, Internet, masofaviy ta’lim, web-portal, kompyuter, video.

Ключевые слова: электронные информационные ресурсы, Интернет, дистанционное обучение, web-портал, компьютер, видео.

Key words: the resources of educational electronic information, internet, distant learning, web-portals, computer, video.

Bugungi kunda global Internet tarmog‘i orqali ta’lim berish butun jahonda an’anaviy o‘qitishning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu ta’lim berish turi Amerika, Evropa va Osiyoning barcha rivojlangan davlatlarida keng tarqalgan. Ta’limning Internet orqali o‘qitish shakli jahonda kundan-kunga kengaymoqda va XXI asr oxirida global Internet tarmog‘i orqali ta’lim berish butun dunyoni qamrab olishi kutilmoqda.

Global Internet tarmog‘i orqali o‘qitish, ularga mo‘ljallangan elektron axborot-ta’lim resurs (EATR)larni yaratish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlarida, jumlaan, Rossiya, Qozog‘iston, Azarbojjon, Qirg‘iziston, Arman, Belorussiya davlatlarini misol qilib aytish mumkin.

Rossiya Federatsiyasida ta’limning axborotlashtirishga va global Internet tarmog‘iga EATRlarni joylashtirish hamda ulardan ta’lim jarayonida foydalanishni rivojlanishi o‘tgan asrning 90 yillar o‘rtalarida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Birinchi qadam sifatida Rossiya universitetlari davlat dasturlari doirasida Rossiya milliy ilmiy-ta’limiy (*runnet.ru*) tarmog‘i shakllantirilib, ushbu tarmoqqa universitetlar, katta ilmiy ta’lim muassasalar birlashtirildi hamda dunyo ta’lim muassasalarining ilmiy ta’lim resurslaridan foydalanishni amalga oshirdi.



Shuningdek (*edu.ru*) federal ta'lim portalining yaratilishi Rossiya Internet segmentida va ta'limni rivojlantirishda asosiy bosqich bo'ldi [1].

2001-2005 yillar oralig'ida esa, yagona axborot ta'limi rivojlantirish maqsadida bir qancha ta'lim portallari yaratilib, ushbu yaratilgan portllarga 10 000 dan ortiq EATRLari jamlanib, 42 ta hududiy masofaviy ta'lim markazi Internet tarmog'i orqali ta'lim berish uchun axborot kommunikatsion qurilmalari bilan ta'minlandi. Ushbu markazdan foydalanib, 2010 yilgacha 400 ming Rossiya Federatsiyasi pedagoglari ta'limni bazaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ko'ptensiyalari rivojlantirish kurslaridan o'tishdi hamda AKT savollariga konsultatsiyalar olish imkonini qo'lga kiritishdi [2].

2005-2008 yillarda kadrlar tayyorlash milliy fondi negizida "Ta'lim tizimini axborotlashtirish" (*portal.nf.ru*), loyihasi amaliyotga joriy etilidi va ushbu loyiha maktab ta'lim tizimida qo'llanildi. Shuningdek, 240 ta maktablararo metodik markazlar yaratilib, 6 mingta maktab axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Barcha markazlar Internetning ajratilgan kanallariga ulangan va serverlar bilan ta'minlangan. Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasining barcha maktablari axborot ta'limni rivojlantiruvchi markazlari shakllangan. Loyihaning asosiy natijasi yagona Internet ta'lim resurslari (*school-collection.edu.ru*) portalida barcha maktablar uchun ochiq ta'lim muhiti yaratilgan. Maktablarni Internetga ommaviy ulash hamda ijodkor pedagoglarning pedagogik jamiyatini shakllanishi, qobiliyatli, bilimli o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirish maqsadida, Internet orqali olimpiadalar o'tkazuvchi (*mon.gov.ru*) ta'lim portali yaratildi.

2006-2010 yillarda ta'limni rivojlantirish maqsadida qishloq maktablari yangi kompyuter sinflari, kompyuter ishchilari o'rinlar uchun o'qituvchi va administratorlar Internetga EATRLarini joylashtirishga erishildi, davlat ta'lim standartining barcha fanlari, maktab boshqarishning axborot tizimlari rivojlandi va hujjat ayriboshlash maktablarni axborot ma'nbalari bilan qo'llab quvvatlovchi (*fcpro.ru*) hududiy ta'lim portallari yaratildi. Shuningdek, ta'limning yangi avlodida 20 000 ga yaqin modullar yaratilgan va umumiy o'rta ta'lim dasturlarining amaliyotda ta'minlanishi, quyidagi fanlar: fizika, kimyo, biologiya, ingliz tili, geografiya, jahon badiiy madaniyati va san'ati, tarix, rus tili va adabiyoti, tabiatshunoslik, matematika va informatikaga oid EATRLar (*cior.edu.ru*) ochiq ta'lim portaliga joylashtirilgan.

2007 yilda loyiha doirasi orqali davlat byudjeti hisobidan dastur materiallarida litsenzion foydalanishga mablag' ajratilgan, standart paketga kirish litsenzion dasturini ta'minlash maqsadida, 3 yil muddat ichida maktablar kompyuterlar bilan ta'minlandi hamda birinchi yordam sifatida 56 xildagi EATRLari (*shkola.edu.ru*) portaliga joylashtirildi.

2007-2009 yillarda Rossiya ta'limi federal loyihalar markazi ta'lim muassasalarida erkin dasturlarni ta'minlashga yo'naltirilgan tijort dasturlarini ta'minlashni to'ldirish yoki muqobillashtirish maktablarda erkin dasturlarni ta'minlash paketi qarshiliklariga qaramay (*linux.armd.ru.*) portali yaratildi hamda ushbu portalga EATRLari joylashtirildi.

2009 yilda masofaviy ta'limni qo'llab quvatlashning yangi loyihasi doirasida (*univertv.ru*) video ta'lim portali yaratilishi boshlandi. Loyiha maqsadi:

- masofaviy ta'limning yangi shakllarini joriy etish;
- madaniyat aloqalarini mustahkamlash va horijdagi rus tilida gaplashadigan fuqarolarni ta'lim olishiga ko'maklashish uchun portal o'zida EATRLarni namoyon etib, saqlashga imkoniyat beruvchi, tizimlashtiruvchi va ilmiy ta'limiy harakterga ega ma'lumotlarni translatsiya qilish.

Video ta'lim portali shakllanishi, uning yaratuvchilari etakchi Rossiya oliy o'quv yurtlaridan ma'ruzalarni qabul qilib, qiziqarli horijiy video materiallarni rus tiliga tarjima qiladi hamda Internet tarmog'ida ta'limga oid video materiallariga bog'lanish xosil qilingan. Shuningdek, portalga foydalanuvchilar jo'natgan video materiallarni joylashtiradi. Portal 21 bo'limdan iborat bo'lib, uning "Maktab" bo'limga yuqori malakaga ega o'qituvchilar maktab dasturi mavzulariga oid video darslarini joylashtiradi.

Ayni paytda, Rossiya Federatsiyasida fizika, kimyo, biologiya va matematika fanlariga oid EATRLar joylashtirilgan (*en.edu.ru*), matematik analiz, chiziqli algebra, differensial tenglamalarga oid maqolalar joylashtirilgan (*exponenta.ru*), matematika, algebra, planimetriya, streometriya, funksiya grafiklariga oid o'quv materiallar joylashtirilgan (*college.ru*), oliy matematika faniga oid ma'ruzalar joylashtirilgan (*mathelp.spb.ru*), fizika, geometriya fanlariga oid (*hypercomplex.xpsweb.com*) portallar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Qozog'istonda elektron ta'lim, virtual ta'lim va global Internet tarmoqda EATRLarni joriy etish 2002 yildan boshlab rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. Ushbu elektron o'qitish tizimlarini joriy etishni 34 ta universitetlarda tajribadan o'tkazdi. Shuningdek Qozog'istonda (*kazntu.kz*) ta'lim portali yaratilib unga 70 mingta elektron katalog joylashtirildi. Portal bugungi kunda Rossiya, Niderlandiya, Ukraina, Qirg'iziston, Tojikston davlatlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Portalning (*kazntu.kz/moodle*) bo'limida rus, qozoq va ingliz tilida 2055 tadan ziyod EATRLari joylashtirilgan.

Qozog'istonning (*moodle.nci.kz*) axborotlashtirish markazi ta'limga oid portallarni qo'llab quvatlaydi. Barcha shahar va viloyatlardagi umuta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchilar ta'limga oid materiallarni olish imkoniyati mavjud. Undan: uyga vazifalarni bajarishda, bilimni sinash uchun elektron



testlar hamda metodik yordam beruvchi ma'lumotlar joylashtirilgan. Portalda algebra, biologiya, fizika, ximiya, qozoq tili, ingliz tili, rus tili va boshqa fanlarga oid EATRLar joylashtirilgan.

(*e.gov.kz*) portalda Qozg'iston maktablari uchun video darslar va multimediali elektron darsliklar joylashtirilgan. Ushbu portaldagi video darslar va elektron darsliklardan tarmoq orqali foydalanish hamda yuklab olish imkoniyatlari mavjud. Portalning yana bir vazifasi fanlarga oid video darslar va elektron dasliklarni aprotatsiyadan o'tkazish ishlarini amalga oshirib boradi.

2008 yildan boshlab (*www.keu.kz*) portali pilot loyhasi maktablarda ta'limning masofaviy kredit shaklini yo'llashga qaratilgan hamda ta'limni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimi doirasida shahar maktab o'qituvchilari uchun o'quv fanlarning dasturlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, Qozog'iston fan va ta'lim vazirligi tomonidan ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida 2011-2020 yillarga mo'ljallangan elektron ta'lim tizimi "E-learning" loyhasi amalga oshirilmoqda.

Azarboyjon davlatida 2001 yildan boshlab global Internet orqali EATRLarni yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish ishlari amalga oshirildi. Birinchi bo'lib, iqtisodiyot universiteti qoshida (*aseu.ab.az*) va (*aktam.aznet.org*) masofaviy portallari yaratilib, ularga 18 xildagi EATRLari joylashtirildi.

2008-2012 yillarda Azarboyjon davlat ta'lim portallarini yaratishni rivojlantirishning birinchi bosqichi amalga oshirildi. Ushbu portaldan uch xil: azrboyjon, rus, ingliz tillarida foydalanish imkoniyati tug'ildi. Portalda fanlarga oid ochiq EATRLari joylashtirilgan bo'lib, uning 4 ta funksional tarmog'i (o'qituvchi, o'quvchi, talaba va ota-onalar) mavjud. Azarboyjon davlatida 2010 yildan boshlab elektron kutubxonalarni yaratish va ularga kitoblarni, jurnallarni, ilmiy risolalarni elektron ko'rinishga o'tkazish hamda audio materiallar joylashtirish ishlari amalga oshirilgan [2].

Qirg'iziston davlatida 1996 yilda masofaviy o'qitish ishlari amalga oshirilgan bo'lib, 2000 yilda Qirg'iziston texnika universitetida o'quv jarayonini boshqarish uchun (*kstu.kg*) korporativ tarmoq yaratildi. Ushbu universitetning serveriga geometriya, kimyo, fizika, matematika va boshqa fanlarda EATRLari joylashtirildi. SHuningdek, Qirg'iziston qurilish, transport va arxitektura universitetlari uchun (*ksucta.kg*) portali yaratilib ushbu portaldagi faol masofaviy ta'lim yo'lga qo'yilgan.

2001 yilda, Fransiya davlati hamkorligida (*iuk.kg*) portali yaratilib, unga fanlarga oid EATRLari joylashtirildi. 1999-2002 yillarda esa, (*do.it.kg*) masofaviy portali yaratildi. Ushbu portaldan talabalar sirtqi va kunduzgi ta'lim olishda foydalanish imkoniyati tug'ildi.

Bugungi kunda Qirg'izistondagi (*do.it.kg*, *is.kaf-i.kg*, *library.it.kg*) portallariga 33 turdagi elektron o'quv kurslar va 234 turdagi video kolleksiyalar joylashtirilgan.

Arman davlatida global Internet tarmog‘i orqali masofadan o‘qitish ishlarining rivojlanishi 2000 yillarda boshlangan bo‘lib, 2002 yilda Arman masofaviy ta‘limi (Armenian Distance Learning Network (ADLN), *e-courses.am*) portali yaratildi. Shuningdek, Arman ta‘limini rivojlantirish maqsadida bir nechta loyihalar amalga oshirilib, loyiha doirasida 2004 yilda “E-commerce”, 2006 yilda “E-marketing” kurslari yaratildi. Ushbu kurslarda 18 soatlik ma‘ruza mashg‘ulotlaridan iborat bo‘lgan.

2008 yildan Arman vertual universiteti qoshida ochilgan (*panarmenian.net*) portali, Arman tarixi madaniyati va tilini o‘rganishga 12 ta kurs faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu kurs fanlarni o‘rgatishda 6 tilda: sharqiy-arman, g‘arbiy-arman, ingliz, rus, fransuz va ispan tillarida amalga oshirib kelmoqda. Ushbu kurslarni tinglaganlaridan so‘ng, tugatilganligi to‘g‘risida sertifikat beriladi. Hozirgi vaqtda, ushbu kurslarni tinglash uchun 400 tadan ziyot abituriyent ro‘yxatdan o‘tgan. Ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilarning eng yoshi 17 yoshni tashkil etsa, eng katta yoshlisi esa, 82 yoshni tashkil etadi. Ushbu kurslarni tugatgan ko‘plab abituriyentlar AQSH, Rossiya, Fransiya, Argentina va Arman davlatlarining oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olishni davom ettirmoqda. Shuningdek, (*www.amedu.am*) Arman ta‘lim portali bugungi kunda ko‘plab ma‘lumotlarni (o‘quv materiallari, dasturlar, qonun va nizomlar, imtixon savollari, elektron o‘quv materiallar) o‘zida jamlagan.

2009 yildan boshlab Armanistonda raqamli ta‘lim moduli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu raqamli ta‘lim modulining asosiy maqsadlaridan biri, barcha: matematika, informatika va boshqa fanlardan o‘zlashtirishda global Internet tarmog‘iga joylashtirilgan EATRLaridan foydalanishni maqsad qilgan.

Belorussiya davlatida ta‘lim tizimiga axborot texnologiyalarni joriy etish ishlari 1998-2006 yillarda amalga oshirilgan bo‘lib, 200 yilda Belorussiya davlatida informatika va radioelektronika universiteti qoshida (*distant.bsuir.by*) masofaviy markaz yaratilgan bo‘lsa, 2003-2010 yillarda esa, global Internet tarmog‘iga EATRLarini yaratish va undan ta‘lim tizimida oqilona foydalanish maqsadida (*lenue.minsk.edu.by*) portali yaratildi. Ushbu portlda fanlarga oid (matematika, fizika, informatika va boshqa fanlar) EATRLari joylashtirildi. Shuningdek, 2006 yilda elektron ta‘limni rivojlantirish maqsadida (*giac.unibel.by*) bosh axborot-tahlil portali yaratildi.

2007-2010 yillarda ta‘lim tizimiga EATRLarni joriy etish bo‘yicha xorij tajribalaridan foydalanib, ta‘lim vazirligi tomonidan (*minedu.unibel.by*) portali yaratildi. Ushbu portalda Internet tarmog‘i orqali ilmiy amaliy tadbirlarni o‘tkazish, portal bazasiga elektron kitoblarni jamlash, respublika kutubxonalari korporativ katalog yaratish ko‘zda tutilgan.



Xulosa qilib aytganda mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlardagi web-sayt va web-portallarning yaratilishi va ularga EATRLarni joylashtirish hamda ulardan foydalanishning ilmiy tahlili o'rganilganda quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- fanlarga oid web-sayt va web-portallarning ko'plab funksional imkoniyatlari mavjudligidan o'quvchi ta'lim olishda chalg'ishi mumkin;
- Internetga joylashtirilgan EATRLarni qidirishda qiyinchiliklarga uchrashi mumkin;
- ko'plab EATRdan foydalanishda va yuklab olishda ba'zi bir to'siqlar mavjud (ro'yxatdan o'tish yoki o'zi haqida ma'lumot berish kabi);
- ta'limga oid web-sayt va web-portallarda chalg'ituvchi laminantlar va animatsiya effektlari mavjud;
- ba'zi bir web-sayt va web-portallarda fanni o'zlashtirishga oid EATRLar tizimli ketma-ketlikka amal qilinmagan.

Yuqoridagi tahlillar asosida mamlakatimizda fanlardan EATRLarini yaratish va foydalanishda quyidagilarga amal qilinishi kerak:

- ta'limga oid yaratiladigan web-sayt va web-portallarni yaratishda o'quvchining chalg'ituvchi laminantlar va animatsiya effektlarini joylashtirmaslik;
- ta'limga oid yaratiladigan web-sayt va web-portallar judda sodda tuzilishga ega bo'lishi;
- EATRLarni oson yuklab olish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- EATRLaridan foydalanib ta'lim olishda chalg'ituvchi manbaalar qo'yilmasligi;
- ma'lumotlarni qidirishda soddalikka e'tibor berilishi;
- fanlardan EATRLarni yaratishda tizimli va ketma-ketlikka e'tibor qaratilishi.

Adabiyotlar:

1. Андреев А.А. Дистанционное обучение и дистанционные образовательные технологии. Открытое образование 5/2013 . С 40-46.
2. СНГ на пути к открытым образовательным ресурсам. ЮНЕСКО, 2011 г.- 159 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada Global Internet tarmog'iga mo'ljallangan elektron axborot-ta'lim resurs (EATR)larini yaratishda mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari tajribalarini foydalanish va ularni ommalashtirish bo'yicha tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье обсуждается использование и распространение электронных образовательных информационных ресурсов, предназначенных для Глобального Интернета, созданных в независимых странах содружества.

SUMMARY

The article discusses the use and spreading of Electronic educative Information resources designated to Global Internet created in independent commonwealth countries.